

Date: 27th November-2025

**YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARIDA VATANPARVARLIK VA MILLIY
QADRIYATLARGA SADOQAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH
DIALEKTIKASI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: **Raxmatullayev Botir Sobir o'g'li**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari:

Xudoyqulova Gulafza Iskandar qizi

O'ktamova Shirin Azizjon qizi

Rahmatullayevbotir70@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-8327-7309>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston yoshlarida vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning dialektik jihatlari tahlil qilingan. Oila, ta'lim, ijtimoiy muhit va zamonaviy axborot oqimlarining tarbiya jarayoniga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, dialektika, ma'naviyat, Yangi O'zbekiston, oilaviy tarbiya, ta'lim.

Аннотация: В статье анализируются диалектические особенности формирования чувства патриотизма и преданности национальным ценностям у молодежи Нового Узбекистана. Рассматриваются роль семьи, образования, социальной среды и информационных технологий в воспитательном процессе.

Ключевые слова: патриотизм, национальные ценности, воспитание молодежи, диалектика, духовность, Новый Узбекистан, семейное воспитание, образование

Annotation: This article analyzes the dialectical aspects of fostering patriotism and loyalty to national values among the youth of New Uzbekistan. It highlights the role of family, education, social environment, and modern information flows in shaping young people's worldview and values.

Keywords: patriotism, national values, youth education, dialectics, spirituality, New Uzbekistan, family upbringing, education.

Kirish:

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongida vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat va sadoqat tuyg'usini mustahkamlash davlat siyosatining dolzarb yo'nalishiga aylangan. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida aynan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ma'naviy olamini boyitish, milliy o'zlikni anglashga yordam berish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Vatanparvarlikning dialektik mohiyati esa yoshlarning hayotiy tajribasi, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya jarayoni va shaxsiy dunyoqarash o'rtasidagi uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi.



Date: 27th November-2025



Shu o'rinda Yangi O'zbekistonning tayanchi va Uchinchi renessans poydevori bo'lgan yoshlarni milliy qadriyatlar orqali tarbiyalashimiz jamiyat taraqqiyotini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi Dunyoda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy-huquqiy ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi bois 2 milliarddan ortiq yoshlarning ongi va dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan kurash avj olmoqda.

Respublikamiz aholisining 60 foizdan ortig'i yoshlar ekanligidan kelib chiqib, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va ularning manfaatlarini har tomonlama huquqiy himoya qilishga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar g'oyadan amaliy natijaga aylanayotganligiga guvoh bo'lyapmiz. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda bu masala nihoyatda muhim va ustuvor hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning unsurlari zaruriy tarbiya omilga aylanmoqda. Biz pedagoglardan esa, bir katta kuch bo'lib, yurt ravnaqi uchun har tomonlama yordam berish kun tartibidagi vazifaga aylangan. Bu jarayon xaqida Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev**: "Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur", – deya ta'kidlagan edi. Haqiqatan ham yoshlarning ongiga etno tarbiyamizning o'zagi bo'lgan milliy qadriyatlarimizni singdirsak muhim natijalarga erishiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatlarning ma'rifat nuri bilan tarbiya topgan yetuk avlod tarbiyalash barcha sohalarning, bugungi islohotlarimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Avvalo, yoshlar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila — birinchi ma'naviy maktab, undagi mehr-muhabbat, hurmat, e'tiqod va mehnat madaniyati yosh shaxsning vatanparvarlik tuyg'usining ildizini barpo etadi. Ta'lim muassasalari esa bu jarayonning davomchisi sifatida milliy tarix, adabiyot, san'at va urf-odatlarini o'rgatish orqali yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi.

Yoshlar bilan olib borilayotgan tarbiya jarayoni ham dialektik xarakterga ega. Bir tomondan, zamonaviy texnologiyalar, ochiq axborot makoni, global madaniy oqimlar yoshlar dunyoqarashini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, bu jarayon ma'naviy qadriyatlarning yo'qolib borishi xavfini ham tug'diradi. Shu sababli tarbiya jarayoni milliylik va zamonaviylik uyg'unligiga asoslanishi, yoshlarning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qilishi lozim. **Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev** ta'kidlaganidek: "Biz mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak. Bu orqali nafaqat bugunimiz, istiqboldagi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti ham farovon bo'ladi.

O'z Vatani va millati oldidagi burchini anglab yetish har bir shaxsning oliy maqsadi bo'lishi zarur. Avvalo, shu shaxs o'z Vatanining bir bo'lagi ekanini his etishi, bu bilan faxrlanishi lozim. Vatanda kamol topganligini unutmasligi, o'z o'rnida aynan Vatan undan

Date: 27th November-2025



mehr va oqibat kutajagini esda saqlashi tabiiy holda bo'lishi kerak. Shunday qilingandagina shaxs baxt-saodatga erishishi mumkin. Birinchi Prezidentimiz Karimov.I.A. "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" nomli asarida: "O'zbekistonning har bir asl farzandi o'zini ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etayapti va bundan faxranyapti. Istiqlool bergan eng katta boyliklardan biri ana shu desak yanglishmagan bo'lamiz", - deb yozgan edi. Ha vatanparvarlik mustaqillik bilan chambarchas bog'langandir. Bular bir-birini to'ldirsagina shaxs ma'naviyati yetuk hisoblanadi.

Milliy o'z-o'zlikni anglash natijasida o'z mamlakati taraqqiyotini belgilash, uning mustaqilligi uchun kurashning namunasini beradi. O'z-o'zini anglash kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash uchun foydalaniladi, u mas'uliyatini oshiradi. Ajdodlar fidoyiligi, jonkuyarligidan xulosalar qilinadi. O'z-o'zini anglash shunday bir noyob jarayonki, uning mohiyatiga yetish insonda bitmas-tuganmas mehr-muhabbat, shafqat, umumiy insonparvarlikni shakllantiradi. Insonlarda milliy anglash bo'lmasa, milliy manfaatlarni tushunish qiyin. Qachonki, milliy anglash yuksak bo'lgandagina kerakli vaqtda, ya'ni o'z millatining qadr-qimmatini pasaytirayotgan hodisa va harakatlar bo'lsa, uning ma'naviy va moddiy boyligiga zarar keltirsa, g'ururi poymol etilaversa, o'shanda birlashish, himoya qilish namoyon bo'ladi. Milliy istiqlool g'oyasini tushunib yetish ham talabning burchidir. Ammo, burch elementlarini, mas'uliyat jarayonlarining shakllanishini talabning shaxsiy ishidir, deb qo'yish ham o'rinsizdir. Kundalik faoliyatda har bir o'qituvchi tomonidan bu burch va mas'uliyatlar ma'lum imkoniyatlar topib" Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" darsining ongiga singdirilishi lozim.

Xulosa:

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ongida vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish kompleks, uzviy va dialektik jarayondir. Bu jarayon oiladan boshlanib, ta'lim tizimi, ijtimoiy muhit va amaliy faoliyat orqali yanada takomillashadi. Milliy qadriyatlariga sodiq, tarixiy xotiraga ega, zamonaviy fikrlaydigan va yurt ravnaqiga mas'uliyat bilan yondashadigan yosh avlod — mamlakat kelajagining mustahkam poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ruziyeva R. Urf-odat va an'analar – milliy qadriyatlarni shakllantiradigan mezon sifatida.// elektron jur. Scientific progress № 2. 2021. (644-648).
2. Inamov Q. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №4. 2021. www.oriens.uz (111-116)
- 3..Ahmedov B. 2016. "Tarbiya nazariyasi va metodikasi." Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti
- 4.Abdullayeva Sh.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Saitov S.S. Pedagogika. – Toshkent. 2014. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti.
- 5.Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar – bizning kelajagimiz. Rasmiy nutqlar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2020.
- 6.. "Yoshlar siyosati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – 2016.

Date: 27th November-2025

7. Yo‘ldoshev J., Qodirov R. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2020.
8. Qahhorova N. Yoshlar ongida milliy g‘ururni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2022.
9. Karimova D., Omonov B. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

